



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



UOʻT: 631.527:633.51(575.1):631.531.02

**QORAQALPOGʻISTONDA GʻOʻZANING NAV NAMUNALARIDA URUQ
VAZNINING BOSH POYA BALANDLIGI BILAN BOGʻLIQLIGINI OʻRGANISH**

Ramazanov Daniyar Baxitbay uli

Qishloq xoʻjaligi fanlari falsafa doktori (PhD)

Qoraqalpogʻiston qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalar instituti

Tel: [+998912643737](tel:+998912643737)

e-mail: daniyar.bakhitovich@gmail.com

Ziuatdinova Munysaxon Jalgasbaevna

Magistrant

Qoraqalpogʻiston qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalar instituti

Tel: [+998887500151](tel:+998887500151)

e-mail: munisaziuatdinova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19205613>

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Qoraqalpogʻiston sharoitida gʻozaning turli nav namunalari urugʻ vazni bilan bosh poya balandligi oʻrtasidagi bogʻliqlik oʻrganildi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, navlar va takrorlanishlar boʻyicha urugʻ vazni bosh poya balandligiga har doim ham aniq ijobiy yoki salbiy taʼsir koʻrsatmaydi. Baʼzi navlarda urugʻ vazni ortishi bilan bosh poya biroz oshgan boʻlsa, boshqa navlarda bu bogʻliqlik kuzatilmagan yoki teskari taʼsir koʻrsatgan. Olingan natijalar gʻoza seleksiyasida nav tanlash va hosildorlik belgilarini baholash jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Kalit soʻzlar: gʻoza, nav, urugʻ vazni, bosh poya balandligi, bogʻliqlik, seleksiya, hosildorlik, takrorlanish.

Abstract. This study investigated the relationship between seed weight and main stem height in different cotton varieties under the conditions of Karakalpakstan. The results showed that, depending on the variety and repetitions, seed weight does not always have a clear positive or negative effect on stem height. In some varieties, an increase in seed weight was accompanied by a slight increase in stem height, while in others no correlation or even a negative effect was observed. These findings are important for cotton breeding, variety selection, and the evaluation of yield-related traits.

Keywords: cotton, variety, seed weight, main stem height, correlation, breeding, yield, repetition.

Kirish. Hozirgi vaqtda seleksiya markazlari va boshqa tajriba-seleksiya muassasalarini yanada ixtisoslashtirish, yangi nav va duragaylar olish muddatini qisqartirish, seleksiya ishlarining sifat va samaradorligini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish orqali respublikamizda seleksiya va urugʻchilik ishlarini tezkor rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Paxtachilikda gʻozaning tez pishadigan va bir nechta qimmatli belgilariga ega navlari alohida ahamiyat kasb etadi. Seleksiyonchilar ushbu yoʻnalishda samarali ish olib borish uchun paxta hosildorligi va boshqa xoʻjalik belgilarining oʻzaro bogʻliqlik qonuniyatlarini yaxshi tushunishlari zarur. Shu jihatdan, bizning ilmiy tadqiqotimizning dolzarbligi gʻozaning yangi nav va tizmalarida urugʻ vazni va saqlash sharoitiga koʻra qimmatli xoʻjalik belgilarining oʻzaro bogʻliqligini oʻrganishga qaratilgan.



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Hozirgi davr paxtachiligi intensiv tipdagi navlarga yuqori talab qoʻymoqda: navlar yuqori potensial hosildorlikka ega, tez pishadigan, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mexanizatsiyalashgan parvarishlash va hosilni yigʻib olishga mos boʻlishi, tolasi va yogʻlilik darajasi yuqori boʻlishi kerak.

O.J.Jalilov [1] esa gʻozaning intensiv navlarini yaratish borasida shunday tavsiya qiladi: «Davlatimiz uchun asosiy boylik manbai hisoblangan paxtachilik, xususan gʻoza yetishtirish uchun, oʻziga xos qulay iqlim sharoitlarida tez pishadigan, xoʻjalik koʻrsatkichlari yuqori boʻlgan intensiv gʻoza navlarini yangi avlodini qisqa muddatlarda yaratishda genetik, seleksiya va tanlash usullariga tayangan holda ishlashimiz zarur».

B. Mamarahimov va boshqalarning [2] fikriga koʻra, G. tomentosum ishtirokidagi duragay oʻsimliklarda shonalash va gullash davrlarida onalik xomashyosining taʼsiri deyarli bir xil boʻlib, faqat koʻrsatkichlar biroz madaniy sharoitga qarab oʻzgaradi.

Ya. Boboev, R. Kim va A. Amanturdievlar [3] oʻz tadqiqotlarida, F₂ oʻsimliklarda tez pishish belgisi gʻozaning boshqa belgilariga bogʻliqligini tahlil qilgan holda, oʻsimlik boʻyi belgisi baʼzi duragay kombinatsiyalarida kuchsiz yoki oʻrta darajada bogʻliqlik koʻrsatishini taʼkidlaganlar.

Tadqiqot materiallari va usullari. Dissertatsiya ishining obyekti sifatida Qoraqalpogʻiston dehqonchilik ilmiy tadqiqod instituti “Gʻoza seleksiyasi va urugʻchiligi” laboratoriyasidan gʻoza namunalari olindi. Ilmiy izlanishlar Qoraqalpogʻiston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining “Gʻoza seleksiyasi va urugʻchiligi” laboratoriyasida hamda institutning tajriba xoʻjaligi dala maydonlarida olib borildi. Vegetatsiya davrida birinchi hosil shoxining joylashuvi, gullash va pishish davrlari, shuningdek oʻsimlik boʻyi kabi bir qator morfologik kuzatuvlar amalga oshirildi. Oʻsimlik boʻyi oʻlchovi nav va tizmalar 50% gullash davrida har bir qator boʻyicha 10 ta oʻsimlikdan olindi. Tola sifati Oʻzbekiston Respublikasi Davlat «Sifat» markazi laboratoriyasida aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Biz oʻrganayotgan nav namunalarda bosh poya balandligi boʻyicha takrorlanishlarda turlicha koʻrsatkichlarni namoyon qildi. Masalan, standart sifatida olingan S-4727 navining 1-takrorlanishida 1000 dona urugʻ vazni 138,9 gramm boʻlganida oʻsimlik boʻyi 70,5 sm ni tashkil qildi. 2 va 3-takrorlanishlarda esa urugʻ vazni 122 gramm boʻlganida oʻsimlik boʻyi mos ravishda 71,0 va 70,0 sm boʻldi. Natijalardan koʻrinib turibdiki, 1000 dona urugʻ vaznining yuqori yoki pastligi bosh poya balandligiga sezilarli ijobiy yoki salbiy taʼsir koʻrsatmagan.

DP1-SR-383 namunasida 1-takrorlanishda 1000 dona urugʻ vazni 114,9 gramm boʻlganida bosh poya balandligi 83,0 sm ni, 2 va 3-takrorlanishlarda esa urugʻ vazni 111,1 gramm boʻlganida oʻsimlik boʻyi 79,0 va 80,5 sm ni tashkil qildi. Bu yerda urugʻ vaznining biroz kamayishi bilan bosh poya balandligi ham ozgina pasayganligi kuzatildi.

Holland 1806 va N509 namunalarda 1-takrorlanishda 1000 dona urugʻ vazni 112,4 gramm boʻlganida oʻsimlik boʻyi 71,5 sm, 2-takrorlanishda 109,9 gramm boʻlganida 60,0 sm, 3-takrorlanishda 104,2 gramm boʻlganida esa 80,0 sm ni tashkil qildi. Bu navda urugʻ vazni yuqori boʻlganda bosh poya balandligi ortishi kuzatilmagan.

Lancert 611 namunasida 1-takrorlanishda 1000 dona urugʻ vazni 106,4 gramm boʻlganida oʻsimlik boʻyi 63,5 sm, 2-takrorlanishda urugʻ vazni 114,9 gramm boʻlganida oʻsimlik boʻyi 68,0



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



sm ni tashkil etdi, ya'ni urug' vazni ortishi bilan bosh poya balandligi ham biroz ortdi. Ammo 3-takrorlanishda urug' vazni 117,6 gramm bo'lganida o'simlik bo'yi 59,5 sm ni tashkil qilib, avvalgi ikkala takrorlanishdan ham past bo'ldi.

Xylosa. Turli g'oz navlarida 1000 dona urug' vazni va bosh poya balandligi o'rtasidagi bog'liqlik turlicha namoyon bo'lgan. Ba'zi navlarda urug' vazni ortishi bilan bosh poya biroz oshgan, boshqa navlarda esa bu bog'liqlik kuzatilmagan yoki teskari ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan, 1000 dona urug' vaznining yuqori yoki pastligi bosh poya balandligiga har doim aniq ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatmasligi aniqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жалилов О.Ж., Газиянц С. «Теоретические основы селекции хлопчатника». Тошкент. «Меҳнат». 1996 й. 98-121-б.
2. Mamaraximov B.I. G. tomentosum Nutt ex Seem ishtirokidagi turlararo duragaylardagi belgilar shakllanishida takroriy chatishtirishning roli. – Qishloq xo'jalik fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi, mualliflik reziyumesi. Tashkent, 2002, 23 bet.
3. Бобоев Я.А., Ким Р.Г., Амантурдиев А.Б., Ёўза мащсулдорлигининг бошқа қимматли хўжалик белгилари билан ўзаро боғланиши. /ўза генетикаси, селекцияси, уруғчилиги ва бедачилик масалалари тўплами. Тошкент, 2002, 62-63 бет.
4. Qoyli'baevna A. M. et al. Qoraqalpog'istonning tuproq va iqlim sharoitlarining o'simliklarning ko'payishiga ta'siri //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 4. – С. 243-245.